

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida

B I T I M

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qirgiziston Respublikasi Hukumati, bundan keyin Tomonlar deb ataladilar, ikkala davlat o'rtasidagi tarixan tarkib topgan munosabatlarni e'tiborga olib, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish istagida, sanoat mulkini samarali va monand muhofaza qilish bunday hamkorlikni rivojlantirishning zaruriy sharti ekanligini e'tirof etib, shu maqsadda sanoat mulki mualliflari va egalarining huquqlarini muhofaza qilish uchun o'zaro qulay shart-sharoit yaratish zarurligini anglagan holda, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

1-modda

Tomonlar ixtirolar, .sanoat namunalari, mahsulot belgilari va boshqa sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi hamkorlikni ushbu Bitimga va boshqa o'zlari ishtirokchi bo'lgan yoki bo'ladigan xalqaro shartnomalarga muvofiq o'zaro manfaatdorlik hamda tenglik asosida amalga oshiradilar va rivojlantiradilar.

2-modda

Tomonlarning hamkorligi:
sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'lik masalalarni tartibga solishga;
sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi milliy huquqiy Hujjatlarni muvofiqlashtirishga;
O'zbekiston Respublikasi talabnoma beruvchilari uchun Qirgiziston Respublikasida va Qirgiziston Respublikasi talabnoma beruvchilari uchun O'zbekiston Respublikasida muhofaza hujjatlari berish so'ralgan talabnomalarni topshirish va ularni ko'rib chiqish tartibini o'zaro soddalashtirishga;
sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida axborot, normativ va boshqa hujjatlar, shuningdek tajriba va mutaxassislar almashishga yunaltiriladi.

3-modda

Sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida bir davlatning jismoniy va yuridik shaxslari ikkinchi davlat xududida mazkur ikkinchi davlatning qonunchiligi bilan uning o'z jismoniy va yuridik shaxslari uchun hozirgi vaqtda berilgan yoki keyinchalik beriladigan huquq va imtiyozlardan bir xil asoslar hamda hajmlarda huquqiy muhofaza vositalaridan foydalanadilar.

Bunda ushbu Bitim bilan tartibga solinmagan masalalar bo'yicha Tomonlar 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij Konvensiyasi qoidalarini qo'llaydilar.

4-modda

Tomonlardan har biri quyidagilarni ta'minlovchi zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradilar:

sanoat mulki obyektlari uchun ilgari berilgan SSSR muhofaza hujjatlarining o'z xududida

amal qilishini e'tirof etish;

SSSR mualliflik guvohnomalari va guvohnomalari bilan muhofaza qilingan ixtirolardan va sanoat namunalaridan foydalanganlik uchun mazkur foydalanish sodir bo'lgan davlatning huquqiy hujjatlariga muvofiq mualliflarga mukofot pulini to'lash;

sanoat namunalari uchun SSSR ixtirolari va guvoxnomalariga SSSR mualliflik guvohnomalarini qolgan amalda bo'lish muddati uchun milliy patentlarga almashtirish;

SSSR muhofaza hujjatlari bo'yicha sanoat mulki obyektlariga berilgan milliy muhofaza hujjatlarining har ikkala davlatlar xududida amalda bo'lishini muhofaza qilinayotgan obyektning ushbu obyektga talabnoma berilgan sanada amalda bo'lgan qonunchilikda nazarda tutilgan muhofazaga layoqatlilik shartlariga nomuvofiqligi sabab to'xtatish;

har ikkala davlatlarning murojaat qiluvchilariga va ularning patent bo'yicha vakillariga milliy muhofaza hujjatlari hamda SSSR muhofaza hujjatlarini milliy muhofaza hujjatlariga almashtirish bo'yicha tavsiyanomalar berish huquqini berish.

5-modda

Tomonlar e'tirof etadilarki, O'zbekiston Respublikasi va Qirgiziston Respublikasining har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsi litsenziya shartnomasi tuzmasdan ixtiro yoki sanoat namunasidan foydalanish huquqini, basharti ushbu ixtiro yoki sanoat namunasidan foydalanish boshqa shaxslar tomonidan SSSR mualliflik guvohnomasi berish uchun talabnoma ilgari berilgan ixtiro yoki sanoat namunasiga milliy patent berish so'ralgan iltimosnoma topshirilgan sanadan oldin qonuniy ravishda boshlangan bo'lsa, saqlab qoladi.

Bunda mualliflarga mukofot pulini to'lash ko'rsatilgan ixtiro yoki sanoat namunasi qaysi davlat xududida foydalanilayotgan bo'lsa o'sha davlatning qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6-modda

Muhofaza hujjatlarini berish so'ralgan talabnomalarni topshirish, muhofaza hujjatlarini qabul qilib olish va ularni o'z kuchida saqlab turishda ikkala davlatning patent bo'yicha vakillari o'zaro hamjixatlilik prinsipi asosida bevosita shu davlatlarning patent idorasi bilan ish olib borishlari mumkin bo'lib, bunda faqat milliy talabnoma beruvchilarning manfaatlarini ifodalaydilar. Bir davlatning milliy talabnoma beruvchilariga, shuningdek uning huquqiy hujjatlari bilan belgilangan tartibda o'zaro hamjixatlilik prinsipi asosida muhofaza hujjatlarini olish va ularni o'z kuchida saqlab turish borasida bevosita boshqa davlatning patent idorasi bilan ish olib borish huquqi beriladi.

Bir davlatning murojaat qiluvchisi tomonidan boshqa davlatning patent bo'yicha vakiliga patent olish uchun beriladigan talabnomalari milliy ustuvorlik to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan takdirda qabul qilinadi.

7-modda

Tomonlar boshqa Tomonning murojaat qiluvchisi tomonidan talabnomalar berishda murojaat qiluvchining sanoat mulki obyektlariga chet mamlakat patenti berish tartibiga doir milliy qonunchilik talablariga amal qilishni tasdiqlovchi hujjat takdim qilinishini e'tirof etadilar.

8-modda

Talabnomalar topshirganlik, muhofaza hujjatlari berganlik, ularni o'z kuchida saqlab turganlik va sanoat mulkini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog'lik boshqa yuridik jihatdan ahamiyatli ishlarni bajarganlik uchun poshlinalar to'lash, shuningdek boshqa

xizmatlar ko'rsatganlik uchun to'lov O'zbekiston Respublikasi va Qirgiziston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan valutada, miqdorlarda va tartibda amalga oshiriladi.

9-modda

Tomonlar iqtisodiy, savdo, sanoat, fan va texnika sohasida hamkorlik to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlarga sanoat mulki obyektlarining muhofaza qilinishini ta'minlashga doir qoidalarni kiritish majburiyatini zimmalariga oladilar.

10-modda

Tomonlarning ushbu Bitimni amalga oshirish davomida bir-birlariga yo'llaydigan barcha hujjatlari rus tilida taqdim etiladi.

11-modda

Quyidagilar Tomonlarning vakolatli organlari hisoblanadilar:

O'zbekiston Respublikasi uchun - O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qumitasining Davlat patent idorasi;

Qirgiziston Respublikasi uchun - Qirg'iziston Respublikasi Hukumati huzuridagi intellektual mulk Davlat agentligi.

Patent idoralarining hamkorlik qilish tartibi va shartlari ular o'rtasidagi mahsus bitimlar bilan aniqlanadi.

12-modda

Ushbu Bitimdan kelib chiqadigan yoki uning bajarilishi bilan bog'lik masalalar yuzasidan kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda Tomonlarning vakillari ushbu kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli maslahatlashuvlar o'tkazadilar.

13-modda

Ushbu Bitim Tomonlarning boshqa davlatlar bilan sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikda ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaydi.

14-modda

Ushbu Bitimga Tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

15-modda

Ushbu Bitim imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi va besh yil mobaynida amal qiladi. Agar Tomonlardan biri uning navbatdagi amal qilish davri tugashidan kamida olti oy oldin ushbu Bitimning amal qilishini to'xtatish bo'yicha o'z niyati to'g'risida ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilmasa, uning amal qilishi keyingi besh yillik davrlarga o'z-o'zidan uzayaveradi.

Ushbu Bitim amalda bo'lishining to'xtatilishi ikkala davlat jismoniy va yuridik shaxslariga ushbu Bitimning amalda bo'lish davrida berilgan talabnomalarga binoan berilgan yoki berilishi mumkin bo'lgan muhofaza hujjatlarining amal qilishiga ta'sir etmaydi.

1996 yil " 24 " dekabrda Toshkent shahrida ikki nusxada, har biri o‘zbek, qirg‘iz va rus tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Ushbu Bitim qoidalarini talqin qilishda rus tilidagi matndan foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Hukumati tomonidan

Qirg‘iziston Respublikasi
Hukumati tomonidan